

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN  
BIBLIOGRAFIYA VA BIBLIOGRAFIK XIZMATLAR FANIDAN  
MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BIBLIOGRAFIYA VA BIBLIOGRAFIK XIZMATLAR FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Bibliografiya va Bibliografik xizmatlar fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

Bibliografiya va Bibliografik xizmatlar

- 1.Ijtimoiy gumanitar fanlar bo‘yicha nashr turlari va xillari;
- 2.Badiiy nashrlar bibliografiyasining maqsadi va vazifalari;
- 3.San’at va san’atshunoslik nashrlari bibliografiyasi;
- 4.Soha adabiyotlarini bibliografiyalash uslubiyoti va uni tashkil etish;

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha nashr turlari va xillari	Gumanitar sohaga oid nashrlari o'z davrini dolzarb masalalariga bag'ishlanib chiqarilgan va chiqib kelmoqda. Gumanitar sohaga oid nashrlarni kitobxonlarga mo'ljallanishi va bu kitoblarda materiallarni yoritilishiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin: rasmiy nashr; davlat organlari, muassasalar, idoralar yoki jamoat tashkilotlari nomidan nashr etiladigan, normativ yoki direktiv harakatdagi materiallarni o'z ichiga olgan nashr.	14 ta
2	Badiiy nashrlar bibliografiyasining maqsadi va vazifalari	Bibliografik axborot bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasini o'zlashtirish har bir filolog uchun zarurdir, chunki bibliografik axborot madaniyatisiz to'liq bibliografiyalash ham o'qish bosqichida ham har qanday filolog faoliyat jarayonida mumkin emas. An'anaga ko'ra, bibliografik axborot madaniyat atamasi jamiyatda bibliografik axborot bilimlarning tarqalish darajasi va ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ishora qiladi.	3 ta
3	San'at va san'atshunoslik nashrlari bibliografiyasi	Ushbu turdagi nashrlar puxta o'ylangan va ko'pincha mustaqil ilmiy qiziqish uyg'otadigan, mos yozuvlar apparatini original illyustrasion materialning mavjudligi bilan ajralib turadi. Jamoa monografiyalari odatda ilmiy markazlarda bir necha yil davomida va san'at ijtimoiy gumanitar nashrlarning repertuarida kamdan kam uchraydi.	8 ta
4	Soha adabiyotini bibliografiyalash uslubiyoti va uni tashkil etish	Bibliografiyalash - bibliografik axborotni tayyorlash jarayonidir. Bu ish kutubxonaning u yoki bu bo'limiga ma'lum darajada xos bo'lgan bibliografik ishning tarkibiy qismidir. Bibliografiyalash adabiyotlar fondini to'ldirishga, adabiyotlarni qayta ishlash va kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda majburiy belgi sifatida ishlatiladi. Bibliografik yozuvlar - bu hujjatlashtirilgan bibliografik xabardir. Ular kataloglar, kartotekalar, ro'yxatlar, spravkalar uchun mo'ljallangan	5 ta

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Davlatov S.X., Bayturayev T.D. Bibliografiyashunoslik tarixi, nazariyasi va uslubiyati fanining sohalar bibliografiyasi/O'quv qo'llanma. - T.: 2024

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*